

MUSTAQILLIKNING DASTLABKI YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA TASHQI MIGRATSIYA JARAYONLARINI AHOLI IJTIMOIIY HAYOTIGA TA’SIRI (FARG’ONA VODIYSI VILOYATLARI MISOLIDA)

Raxmonov Elyor Abdullajonovich

tarix fanlari boyicha f.f.d, PhD.

Qo‘qon Universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti.

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar qatorida aholi bandligini ta‘minlashda olib borilayotgan ishlar, jumladan mustaqillikning dastlabki yillarida Farg‘ona vodiysi viloyatlari misolida aholi ijtimoiy hayotida tashqi migratsiya jarayonlarining o‘rni ba‘zi ilmiy mulohazalar orqali yoritib berilgan.

Kalit so‘z va iboralar: aholi bandligi, ishsizlik, migratsiya, mehnat migratsiyasi, Xalqaro Mehnat Tashkiloti, Xalqaro Migratsiya Tashkiloti, emigratsiya, ishchi kuchining yetishmasligi, aholi sonining o‘sishi, iqtisodiy qiyinchiliklar.

Аннотация. В статье рассматриваются проводимые в Узбекистане масштабные реформы, направленные на обеспечение занятости населения, а также роль внешней миграции в социальной жизни населения, на примере Ферганской долины в первые годы независимости. Исследуются миграционные процессы и их влияние на социальную жизнь населения через призму некоторых научных размышлений.

Ключевые слова и выражения: занятость населения, безработица, миграция, трудовая миграция, Международная организация труда, Международная организация по миграции, эмиграция, нехватка рабочей силы, рост численности населения, экономические трудности.

Abstract: This article highlights the efforts being undertaken to ensure employment as part of the wide-ranging reforms implemented in Uzbekistan. In particular, it sheds light on the role of external migration processes in the social life of the population during the early years of independence, using the regions of the Fergana Valley as an example. The discussion is supported by certain scientific perspectives.

Key words and expressions: employment, unemployment, migration, labor migration, International Labour Organization, International Organization for Migration, emigration, labor shortage, population growth, economic difficulties.

Mustaqillik yillarida aholining ijtimoiy himoyalash tizimida tashqi migratsiyaning o‘rni alohida ahamiyatga ega bo‘lib, oilalarning daromadlari ortishi barobarida mamlakatning iqtisodi va demografik o‘zgarishlariga ham katta ta’sir qilib kelmoqda. Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: – “Bugungi kunda 2

million atrofidagi aholimiz ro'zg'orini tebratish uchun oilasi, ota-onasi va farzandlaridan uzoqda – chet mamlakatlarda mehnat qilmoqda. Musofir yurtida, turli qiyinchilik va mashaqqatlarga chidab, halol mehnat qilib non topish, albatta, oson emas. Biz chet ellarda daromad bilan birga tajriba va malaka ham orttirayotgan ana shunday yurtdoshlarimizga rahmat aytishimiz kerak. Ular bizning farzandlarimiz, aka-uka, jigarlarimizdir.” [1]

Migratsiya so'zi lotinchadan olingan bo'lib, “ko'chmoq” ma'nosini anglatadi va aholining mamlakat ichidagi yoki bir davlatdan ikkinchisiga ko'chishni bildiradi[15].

Dunyo tajribasidan kelib chiqilganda migratsiyaning asosiy belgisi aholi yashash joyining o'zgarishi bo'lib, u kishilarning ish joyi yoki kasbining almashtirishi natijasida sodir bo'ladigan ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Uning ijtimoiy-iqtisodiy vazifasi esa aholi harakatchanlik darajasini aniqlash hamda uni hududiy qaytadan tarqalishini ta'minlashdan iboratdir.

Migratsiyaning tartibga solish va uning nazorat qilish, bu sohadagi xalqaro konventsiyalarni ishlab chiqishda BMTning aholi nufuzi bo'yicha Komissiyasi, Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT), Xalqaro Migratsiya Tashkiloti muhim rol o'ynaydi. Masalan, XMT tomonidan 1962, 1975 va 1982-yillarda chiqarilgan konventsiyalar xalqaro migratsiyaning tartibga soluvchi asosiy me'yoriy hujjatlar hisoblanib, ularning asosiy moddolari migrantlarni ishga yollash, ularni huquq va kafolatlari, noqonuniy migratsiya hamda uni oldini olish kabi masalalarni tartibga soladi.

Mamlakatlararo migratsiya oqimi ko'lami emigratsiya hududidagi ishsizlik, aholi sonining o'sishi, qashshoqlik, iqtisodiy qiyinchiliklar, immigratsiya mintaqasida esa ishchi kuchining yetishmasligi, tezkor iqtisodiy o'sish va bandlikning o'sishi, ikki hududlardagi ish haqi darajasining keskin farqi, hududiy joylashuv, til va madaniyat darajasi kabi omillar bilan bevosita bog'liqdir[13. – C. 53-60.]. Qolaversa, yer yuzida aholi migratsiyasi tufayli terrorizm xavfining kuchayishi, etnik qatlamlar o'rtasida kelishmovchiliklar paydo bo'lishi, mamlakatlardan yoshlar va malakali mutaxassislarning chiqib ketishi kabi ijtimoiy-demografik xatarlarni yuzaga keltirmoqda. Ayrim mamlakatlar uchun esa demografik vaziyatning yaxshilanishi, oilalarni moddiy ta'minlash, davlatlar uchun pul o'tkazmalari, iqtisodiyotda pul tushumi, ishchi kuchi yetishmasligi yoki ortiqchaligi kabi muammolarning oldini olishga yordam bermoqda.

Jahonda XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ko'plab rivojlangan davlatlarda iqtisodiyotning gurkirab rivojlanishi natijasida ishchi kuchining yetishmasligi migratsiya to'lqining ortishiga xizmat qilgan. Xalqaro mehnat tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, 1970-1990-yillarda ishchi kuchini qabul qiluvchi bu kabi mamlakatlar soni 39 tadan 67 taga yetgan[3. – C. 352.]. Taraqqiy etgan mamlakatlar uchun migrantlar bir tomondan arzon ishchi kuchi bilan ta'minlashga imkon bersa,

ikkinchi tomondan yuqori malakali mutaxassislar yetishmayotgan sohalarini kerakli, munosib, bilimli xodimlar bilan to'ldirishga yordam beradi.

Butun jahonda migrantlar soni yil sayin oshib borgan. Masalan, 2008-yilgi ma'lumotlarni ko'ra, 1960-yilda migrantlarning soni yer yuzi aholisining 2,5foizi, ya'ni 75 million kishini, 2005-yilda 3foizi, ya'ni 191 millionni va 2008-yilda esa 200 million kishini tashkil etgan[5. – C.25.].

XX asr oxiri XXI asr boshlarida Markaziy Osiyo mamlakatlaridan juda ko'plab aholi vakillari mehnat migratsiyasi natijasida o'z davlatini tark etishga majbur bo'lgan. Buning sababi bizning fikrimizcha, SSSR parchalangandan so'ng mintaqada davlatlarning iqtisodiy jihatdan ahvolidan og'irligi, ijtimoiy tanazzul va asosiysi ishsizlik bo'lgan.

Tashqi migratsiyaning asosiy sabablaridan biri bu oilalarning iqtisodiy qiyinchiliklari, ishsizlik va daromad manbaini qoniqarli emasligida bo'lib qolmoqda. Ko'plab sobiq sovet respublikalarida bo'lgani singari O'zbekistonda ham tashqi migratsiya ikki yo'nalishda davom etib kelmoqda: ularning birinchisi, mehnat migratsiyasi – ya'ni qaytib kelish va fuqarolikni saqlash sharti bilan; ikkinchisi, etnik migratsiya – ya'ni qaytib kelmaslik va fuqarolik saqlanmaslik sharti bilan.

O'zbekiston aholisi migratsiyasining 60-70 foizi Rossiya Federatsiyasiga to'g'ri kelib, bu ikki mamlakat o'rtasidagi aloqalar respublikalar iqtisodiy taraqqiyotiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatgan. Shu bilan birga Boltiqbo'yi mamlakatlari, Belarus, Ukraina, Kavkazorti mintaqalari bilan tashqi migratsiyasi boshqa hududlarga nisbatan zaif kechgan. Markaziy Osiyoda respublikalarida esa Qozog'iston bilan migratsiya almashinuvida O'zbekiston ijobiy yutuqlarga erishgan. Lekin shuni ta'kidlash kerakki, shu vaqtga qadar Rossiyada ishlagan migrantlar Qozog'istondagilarga nisbatan yuqoriroq maosh olib kelgan. Masalan, birgina ayol migrantlar orasida bu holat ko'rib o'tilsa, Rossiyada eng ko'p maoshni uy xizmatkori (oyiga 400-500 AQSH dollari) va savdo (300-700 AQSH dollari) sohasida band bo'lganlar migrant ayollar, eng kamini esa uy-joy kommunal xo'jaligida va qishloq xo'jaligida ishlovchilar oladi (200-300 AQSH dollari oralig'ida). Tibbiyot va ta'lim sohasidagi ayollar esa 500-600 AQSH dollari va ba'zan undan ko'proq maosh oladilar. Qozog'istonda qurilish sohasida (bu holat juda kamdan-kam – E.R.) ishlagan ayolar bir oyda o'rtacha 700-900 AQSH dollari, uy xizmatkori sohasida 200-300, qishloq xo'jaligida esa mavsum so'ngida bir oilaga 1000 dan 3000 AQSH dollarigacha maosh berilgan[11. – C. 41-42.].

Shuning uchun ham migrantlar asosan Rossiyaning deyarli barcha hududlarida yuqori malaka talab qilinmaydigan ish o'rinlari, qishloq va uy-joy qurilishi (23 foiz), savdo-sotiq (18 foiz), xizmatlar (19 foiz), qishloq xo'jaligi, sanoat va transportda faoliyat olib borgan[9. – C.39.].

Farg'ona vodiysida ham bu jarayonlar mustaqillikning dastlabki yillardan buyon davom etib kelgan. Mamlakatimizning boshqa hududlarida bo'lgani singari vodiya

ham ishsizlik natijasida aholi turmush darajasining pasayishi migratsiyaning asosiy omillaridan biri bo'ldi. Birinchi o'n yilliklarda vodiya aholisi asosan, qo'shni mamlakatlarga mehnat qilish uchun borgan bo'lsa, keyinchalik davlatlar o'rtasidagi shartnomalar asosida uzoq mamlakatlarga ham chiqa boshlagan. Jumladan, 1995-2004-yillar oralig'ida Koreya Respublikasiga uchun 9,5 ming kishi, AQSH, Malayziya, BAA kabi iqtisodiyoti yuqori bo'lgan mamlakatlarga vaqtinchalik ishlab kelish uchun yuborilgan[14. – B.55.]. Iqtisodchi olimlar mehnat migrantlarining ijtimoiy tarkibi o'rganib quyidagi xulosalarga kelgan: Rossiya Federatsiyasi erkaklar – 81 foiz, ayollar –67,3 foiz, Qozog'iston erkaklar – 12,3 foiz, ayollar –10,0 foiz, Turkiya erkaklar – 2,5 foiz, ayollar –17,6 foiz, Janubiy Koreya erkaklar – 2,4 foiz, ayollar –1,4 foiz, Birlashgan Arab Amirliklari erkaklar – 0,2 foiz, ayollar –1,6 foiz, Amerika Qo'shma Shtatlari erkaklar – 0,3 foiz, ayollar – 0,4 foizni tashkil qilgan[2]. Ushbu statistik ma'lumotlardan ham ma'lum bo'lmoqdaki, qo'shni mamlakatlardan tashqari endi Respublika aholisi uzoq Sharq mamlakatlari va AQSH ga migrant sifatida borishgan. Ularning aksariyati mamlakatlar o'rtasidagi tuzilgan shartnomalar asosida yuborilgan. Masalan, 2006-yilda Koreya Respublikasi Mehnat vazirligi bilan imzolangan Memorandum asosida Koreya Respublikasi ish beruvchilari rasmiy mehnat shartnomasiga binoan fuqarolarni u yerga ishga jo'natib kelmoqda. Respublikamizdan ishga ketuvchilarning 90 foizi o'zbek va qolgan 10 foizi boshqa millatga mansub bo'lib, ular asosan qishloq joylarda istiqomat qiladi[16]. U yerga har yili ishga borish uchun o'n mingdan ortiq odam hujjat topshiradi. Quyidagi jadvalda 2009 va 2010-yillarda Farg'ona vodiysidan Koreya Respublikasiga yuborilgan migrantlar salmog'i keltirilgan[17].

1-jadval

№	Viloyat nomi	2009-yil	2010-yil
1	Andijon	5000	8500
2	Namangan	1000	3800
3	Farg'ona	4000	4500

O'zbekiston Respublikasining mustaqilligining dastlabki yillarida vodiyni uch viloyatida ham ayollar va erkaklarning mehnat migranti sifatida chetga chiqib ketishlari u qadar yuqori bo'lmagan. Masalan, Andijon viloyatida xorijga chiqib ketgan ayollar umumiy salmog'i 6 foizni, erkaklar 12 foizni, Namangan viloyatida ayollar 6,5 foiz, erkaklar 8 foizni, Farg'ona viloyatida bu ko'rsatkich 8,9 foizga 10,4 foizni tashkil etgan[17].

Vodiydagi mahalliy aholining chetga chiqib ketishining (asosan, qo'shni mamlakatlar Qozog'iston va Rossiya Federatsiyasiga) asosiy sababi mintaqqa oilalarining moddiy yetishmovchiliklar natijasida vujudga kelgan[6]. Chunki ko'p hollarda o'z oilasini iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash uchun xorijga yo'l olgan

erkaklarning katta qismi u yerlarda o'zlari og'ir ahvolga tushib qolgan. Va yaxshi yashash uchun o'sha mamlakatning fuqaroligini olishga va o'sha yerda qolib ketishga majbur bo'lgan.

Davlat shartnomasi asosida yuborilgan mehnat migrantlarning bir qismi xorijdagi korxonalarda ishni tashkil etish, uni boshqarish, bozor iqtisodiyoti ko'nikmalarini shakllantirish, zamonaviy bilimlarni egallash, texnologik tajriba va malakalarini boyitib qaytgan. Shuningdek, ishchi kuchini eksport qilish respublika valyuta tushumlarining sezilarli manbai bo'lib qoladi va natijada mamlakatda bu daromad hisobiga yangi ish o'rinlarini barpo etish imkoniyati ortadi[7. – C.136.].

Vodiy aholisining chetga chiqib ketishining asosiy sabablaridan yana biri yuqorida ta'kidlanganidek, bu ishsizlik bo'lib, uning asosini quyidagi toifadagi kishilar tashkil qilgan:

- mustaqillikdan keyin ishlab chiqarishning qisqarishi, joylarda yirik sanoat korxonalarining yopilishi, hisobiga o'z kasbini o'zgartirishga majbur bo'lgan shaxslar;
- ilgargi ish joylaridan bo'shab yangi ish topolmayotgan ishchilar;
- mehnat bozoriga endigina kirib kelgan kishilar va oliygohlarni tamomlagan mutaxassislar;

- uzoq tanaffusdan so'ng mehnat bozoriga qaytgan shaxslar (bola tarbiyasi bilan shug'ullangan ayollar va ozodlikdan mahrum etilganlarning muddati tugagan qismi)[10. – B. 80.]. Shuningdek, qishloq xo'jaligi sohasidagi amalga oshirilgan islohotlar ham vodiy aholisining katta qismini ishsizlikka olib keldi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida vodiy aholisini ish bilan ta'minlanganligi darajasi ta'sir etish omillariga ko'ra o'ziga xosligi bilan Respublikaning boshqa mintaqalaridan farqlanib turgan. Bular aholi o'sish suratlarning barqarorligi, yoshlar salmog'ining ko'pligi, aholi va mehnat resurslarini nisbatan zich joylashganligi, yersuv resurslarining cheklanganligi, o'zlashtiriladigan yerlarning qolmaganligi, sanoat tarmoqlarida ish bilan band aholining boshqa hududlarga nisbatan ortiqchiligi kabilarda yaqqol namoyon bo'lgan[8. – B. 98.]. Shuningdek, Farg'ona vodiysida mehnatga layoqatli aholi ham ko'pchilikni tashkil qilgan holda Andijon viloyatida 1309,1 ming kishi, Namangan viloyatida 151,9 ming kishi, Farg'ona viloyatida esa 1 mln 572,8 ming kishini tashkil etgan[4. – C. 91.]. Mintaqada mehnatga layoqatli aholi zich joylashgan bo'lib, o'rtacha bir kvadrat kilometr maydonga 216,9 kishi to'g'ri kelgan. Bu holat Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasi hududlaridan 22,6 marta, Zarafshon hududlaridan 12,9 marta, Sirdaryo va Jizzax viloyatlari joylashgan Mirzacho'l mintaqasidan 6,1 marta, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarini o'z ichiga oladigan janubiy mintaqadan 4,7 marta, Toshkent mintaqasidan esa 1,3 marta ko'p demakdir[12. – C. 35.]. Bu esa vodiya ijtimoiy infratuzilmani yaxshilash, keng aholi qatlamlarining ehtiyojini qondirish uchun yangidan-yangi ish o'rinlarini yaratish va ularning sonini muntazam ko'paytirish zarurligini anglatadi.

Xulosa qilib aytganda, istiqlol yillarida butun Respublikada bo'lgani singari Farg'ona vodiysida migratsiya jarayonlari faol kechdi. Bu mintaqaning ko'pmillatliligi va mustaqillikdan so'ng sodir bo'lgan turli ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sabablar bilan bog'liq bo'ldi.

Istiqlol yillarida butun Respublikada bo'lgani singari Farg'ona vodiysida migratsiya jarayonlari faol kechdi. Bu mintaqaning ko'pmillatliligi va mustaqillikdan so'ng sodir bo'lgan turli ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sabablar bilan bog'liq bo'ldi. Aholining ishsizlik darajasining ortib borishi va turmush darajasining pastligi kabi omillar tashqi migratsiya jarayonlarini ortib borishi olib keldi.

2017-yildan keyingi davrda amalga oshirilgan ijtimoiy sohadagi islohotlar, aholi bandligini ta'minlash tizimining takomillashuvi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi, urbanizatsiya jarayonlarining kuchayishi natijasida ichki migratsiya oqimida qishloq aholisining shaharlarga ko'chib o'tishi ortib bordi. Shuningdek, aholining tashqi migratsiya jarayonlari tartibga solindi, chet davlatlarga ish izlab chiquvchilar, hamda doimiy yashash uchun ko'chib ketuvchilar soni keskin qisqardi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.M.Mirziyoyev. Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining o'n birinchi s'ezdidagi nutqi. Toshkent, 2023 yil 30 may. <https://kun.uz/kr/36437276>

2. Абдурахмонова Г., Мухитдинов Э. Аҳолини иш билан бандлигини оширишда ташқи меҳнат миграциясининг аҳамияти // Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар. № 4,2018.

3. География мирового хозяйства. Учебник для студентов высших учебных заведений, обучающихся по направлению 021000 – География/ ред. проф. Н. С. Мироненко. – М.: Издательство «Трэвел Медия Интернешнл», 2012. – С. 352.

4. Демографический ежегодник Узбекистана, –Ташкент, 2004. –С. 91.

5. Мировая миграция в 2008 году: регулирование подвижности трудовых ресурсов и условиях развития глобальной экономики, МОМ, – Женева, 2008. – С.25.

6. Мамадиев Р. Четга чиқиб кетаётганлар аёллар ҳисобига кўпайяпти // Наманган ҳақиқати. – 2012 йил, 55-сон.

7.Максакова Л.П. Миграция и рынок труда в странах Средней Азии. Брейд-Стайл.–Ташкент. – С.136.

8. Маллабоев Т., Ҳайдаров С., Икромов М. Фарғона иқтисодий райони саноат тугунларида меҳнат ресурсаридан фойдалиниш муаммолари// Ўзбекистон аҳолиси ва меҳнат ресурслари. –Т.,Унверситет, 1992.– Б. 98. Демографический ежегодник Узбекистана, –Ташкент, 2004. –С. 91.

9. Олимова С. Адаптация трудовых мигрантов из стран Центральной Азии в Россию: рол образования. В кн.: «Этнические ситуации и конфликты в государствах СНГ и Балтии. Ежегодный доклад Сети этнологического мониторинга и раннего предупреждения конфликтов», 2005. Под ред. В. Тишкова и Е. Филипповой. – М., УОП ИЭА РАН, 2006. -С.39.

10. Рахматуллаев Ш. Ҳозирги ўтиш даври ва ишсизлик муаммоси (Фарғона водийси шаҳарлари мисолида) //Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари. Ўзбекистон гуманитар журнали. №1. – 2001, – Б. 80.

11. Региональный отчет «Оценка нужд и потребностей женщин трудящихся мигрантов: Центральная Азия и Россия». ЮНИФЕМ – 2009. – С. 41-42.

12. Социальное развитие и уровень жизни населения в Узбекистане. Стат. сбор. –Тошкент, 2006. – С. 35.

13. Трофимов Е.А. Миграционные аспекты формирования рынка труда на современном этапе // Проблемы жизнеобеспечения и социальной защиты населения в регионе. – Иркутск, 1997. – С. 53-60.

14.Убайдуллаев Р., Ата-Мирзаев О., Умарова Н. Ўзбекистонда демографик жараёнлар ва аҳоли бандлиги.– Тошкент: Унверситет, 2006.– Б.55.

15.Юдина Т.Н. Миграция. Словар основных терминов. – М.: Издательство РГСУ; Академический Проект, 2007. – С.24.; Yana qarang: Денисенко М.Б., Ионцев В.А., Хорев Б.С. Миграциология. – М.: Издательство МГУ,1989.

16.Ўзбекистон Республикаси Меҳнат ва аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш вазирлигининг 2008 йил 31-декабргача бўлган маълумотлари.

17. О‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari agentligining 2009-2010 yillardagi statistik ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.